

# Dolzarb muommalar yechimi olimlar e`tiborida!

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot sektorini rivojlantirishda qishloq xo'jalagining o'rni yuqori bo'lganligi sababli, ularni suv bilan ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarning yechimida yangi yirik gidrouzellarni qurish va ekspluatatsiya qilinayotgan gidrotexnik inshootlarning xavfsiz ishlashini ta'minlash asosiy muhim rol o'ynaydi.

Sardoba suv ombori to'g'oni yorilishi natijasida kelib chiqqan texnogen ofat oqibatida yuz bergen bino va inshootlardagi zararlanishlar hamda buzilishlarni o'rganish maqsadida O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti tomonidan Sardoba tumaniga ekspeditsiya uyushtirildi va o'rganishlar natijalari bo'yicha ilmiy loyihalar tayyorlandi.



Tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishning ilmiy yechimini ta'minlashda mavjud ilmiy-innovatsion salohiyatni jalb etish maqsadida olimlarimiz bir necha loyihalarni taqdim etdi:

1. Tabiiy va texnogen halokatlar xavfini kamaytirish vositalari (yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va transport infratuzilmasi inshootlari);
2. Gruntli to'g'onlarning namlanish va seysmik kuchlar ta'siridan mustahkamligining yo'kotilishi va o'pirilishi oldini olishning ilmiy yechimlari;
3. Suv to'g'onlarining ishonchlilagini oshirishda teskari filtr qurilmasini qo'llash takliflarini ishlab chiqish.

Shuningdek, Quyosh energiyasi Xalqaro instituti mutaxassislari tomonidan yaratilgan markazlashgan ichimlik suvi ta'minotidan uzoqda joylashgan aholini ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan "Kunlik chuchuk suv chiqarish quvvati 1 m<sup>3</sup> bo'lgan Quyosh suv chuchutish qurilmasini ishlab chiqish, o'rnatish va ishga tushirish" loyihasi ham tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etildi.

Ushbu loyihalar dolzarb muommalarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, ekspluatatsiya qilinayotgan va qurilayotgan suv omborlari to'g'onlari, individual uylar va transport inshootlarini xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olingan natijalar aniq tavsiyalar va qo'llanmalar ko'rinishida hududlarni qayta tiklash jarayonida foydalanish uchun taqdim etiladi.